

SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ BAZASI ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI ANIQLASH VA UNI QISQARTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI

Toxtabayev Oybek Odilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada respublikamizda so‘nggi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarining ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta‘mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация: В данной статье описаны широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов к нашей республике за последние годы. При этом были изучены такие направления, как подпольная торговля и общепит, перевозки автотранспортом, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, сформированы научно-практические выводы и предложения по зарубежному опыту и его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Annotation: This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis,

optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish:

Keyingi yillarda jahonda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olishda soliq tizimidan samarali foydalanish masalalarining soliq siyosati ustuvor yo'nalishi sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Xufyona iqtisodiyotning salbiy ta'sirlari oqibatida soliq tushumlarining hajmi sezilarli kamayishi holatlari namoyon bo'lmoqda. BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko'ra, "rivojlanayotgan mamlakatlar yiliga 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslarni "foydani o'tkazish" amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o'tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Natijada budjetdagi yillik yo'qotishlar o'rtacha 250-300 milliard AQSh dollarini tashkil etmoqda". Shu jihatdan ham jahonda xufyona iqtisodiyotni ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat namoyon etmoqda. Jahonda global integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan izlanishlar olib borilmoqda. Xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, uni jilovlash va oldini olishda soliq instrumentlarining samaradorligini baholash, bu boradagi yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, xufyona iqtisodiyotni jilovlash va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan foydalanish uslubiyotini takomillashtirish kabilar mazkur muammo yechimiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi.

J.Shumpeter (2007) ikki turga bo'linishni taklif qiladi: ishlab chiqarishda mumkin bo'lgan texnik nosozlik bilan bog'liq xavf va tijorat muvaffaqiyatining yetishmasligi bilan bog'liq xavf.

A.K.Pokrovskiy (2011) ko'rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o'zaro ta'sir qilish, xavf haqida mavjud ma'lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog'liq xarajatlar (xarajatlar), o'ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim K.F.Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o'ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo'lmaydigan qismi ekanligi ta'kidlanib, qaysiki ular rag'batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko'rsatishlarini ma'lum qilgan .

Aronov, Kashinlar (2004) o'zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o'rgangan holda soliq to'lashdan bosh tortgan soliq to'lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq

va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to'lovchi o'z xohishi bilan soliq to'lash majburiyati bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish sohasida qo'llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov "Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to'g'risida"gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning debitor va kreditor qarzlarni qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to'lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to'lovchilarga davlat hamkori sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

Kuznesovning (2016) fikriga ko'ra, soliq to'lovchi davlatning hamkori, buni soliq organlari xodimlari tomonidan tushunib yetmasdan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirib bo'lmazligi, Kalacheva tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlikka qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish yuzasidan tadqiqot olib borib, soliq madaniyatini oshirishga to'siq bo'layotgan omillar va asosiy muammolar tadqiq etilgan.


Tadqiqot metodologiyasi

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo'nalishlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilib tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ta'kidlash kerakki, soliq tizimida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish va soliq bazasini yashirish bularning orasida eng ko'p faol bo'lgan holat hisoblanadi. Ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish asosan davlat ro'yxatidan o'tmasdan umum-ovqatlanish, savdo, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish nuqtasi tashkil etish orqali tovar va xizmat realizatsiyasini amalga oshirish, davlat ro'yxatidan o'tmasdan, elektron platforma va mesenjerlar orqali savdo (xizmat) ko'rsatish, o'ziga tegishli ko'chmas (ko'char) mulkni ijaraga berish bo'yicha shartnomalarni hamda ular bo'yicha olingan daromadni soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazmaslik, QQS guvohnomasi mavjud bo'lmasdan QQS bilan EXF rasmiylashtirish, QQS maxsus guvohnomasi nafaol bo'lishi kabi holatlar amaliyotda ko'p qo'llanilsa, soliq bazasini yashirish doirasida esa, realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo'yicha aks ettirish, yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo'yicha

tashish, tovarlarni sotishdan (xizmat ko'rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o'tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish) kabi yo'nalishlarda kuzatilmoqda.



1.-rasm. Soliq tizimining instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uning hajmini qisqartirish turlari¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 30-oktyabr 2020-yildagi PF-6098-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida o'ndan ortiq yangi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va ushbu jarayon davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son, 24-avgustdagi PQ-5231-son qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 863-sonli, 2021-yil 7-yanvardagi 1-son, 28-apreldagi 249-son, 19-avgustdagi 529-son hamda 22-sentyabrdagi 595-son qarorlari va shu kabi qonunosti me'yoriy hujjatlarda respublikamizda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olishda soliq tizimiga ham bir qator vazifalar belgilab berilgan va ular bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmoqda.

Bugungi kunda qurilish sohasida xufiyona iqtisodiyot ulushi 50 foizni tashkil qilib, ko'chmas mulk ob'ektlari jismoniy shaxslarga naqd pulga sotilishida sotish narxini kamaytirib ko'rsatish holatlari keng tarqalgan.

Tahlillarga asosan 2023-yilda 1208 ta qurilish korxonasi tomonidan 23 209 ta ob'ekt bozor narxidan past qiymatlarda realizatsiya qilingan va natijada budjetga 110,8 mlrd.so'm QQS to'lanmagan. Agar, buni ayrim xorijiy davlatlar, masalan, Ozarbayjon davlati misolida qaraydigan bo'lsak, bu yerda yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga ko'chmas mulkni sotish faqat elektron hisobvara-fakturalar

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

orqali (naqd pulsiz shaklda) amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. 2022-yilda 732 ta korxonalarning 29 191 ta ob'ekti 8 162,9 mlrd.so'mga realizatsiya qilinganligi notarial tasdiqlangan bo'lsa, hisobotlarda 6 161,4 mlrd.so'mga EHF rasmiylashtirilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu korxonalarning 2 001,5 mlrd.so'mlik 11 963 ta ob'ekti EXF rasmiylashtirilmagan yoki kamaytirib ko'rsatilgan. Natijada 732 ta korxonada 238,3 mlrd.so'mlik soliq summasi hisoblanmay qolgan. Misol uchun, "Perfect universal servic" MChJ 2022- yilda 60 ta 19,8 mlrd.so'mlik ob'ekt realizatsiyasini notarial rasmiylashtirgan bo'lsa, hisobotda 6,2 mlrd.so'm ko'rsatilgan (EXF mavjud) ya'ni 13,6 mlrd.so'mga EXF rasmiylashtirmagan yoki kamaytirib ko'rsatgan.

Shaffof qurilish platformasida 2023-yilda 923 ta korxonalar qiymati 11 358,2 mlrd.so'mlik qurilish montaj ishlarini yakunlagan bo'lib, shundan 157 tasida 779,8 mlrd.so'mlik soliq bazasi hisobotlarda aks ettirilmagan yoki 101,7 mlrd.so'm QQS hisoblanmasdan qolgan. Misol uchun, Shaffof qurilish platformasi ma'lumotlariga asosan Jizzax viloyatidagi "Mukammal qurilish savdo" MChJ 2023-yilda qiymati 56,7 mlrd.so'mlik 15 ta qurilish ob'ektini yakunlagan bo'lib, soliq hisobotlarida 32,6 mlrd.so'mlik ish bajarilganligi ko'rsatilgan. Natijada 24,1 mlrd.so'mlik soliq bazasi kamaytirilganligi hisobiga 3,6 mlrd so'm soliqlar hisoblanmasdan qolgan.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan 75 trln.so'mlik (paxta va g'alladan tashqari) qishloq xo'jalik mahsulotlaridan faqat 7 trln.so'mi elektron hisobvara-fakturalar asosida realizatsiya qilingan hamda budjetga 88 mlrd so'm QQS to'langan. Respublikada qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik va parrandachilik sohasini rivojlantirish uchun 2023-yilda 1 095,5 mlrd.so'm subsidiyalar ajratilgan. Shuningdek, 2020-yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlari realizatsiyasini yashirilgan summasining 6 foizi miqdorida moliyaviy jarima qo'llanilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-iyundagi PF-90-son Farmoniga asosan Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "Agrar va oziq-ovqat sohasidagi vaziyatni baholash" elektron platformasi va "Agroplatforma" axborot tizimi ishlab chiqilmoqda. Ushbu axborot tizimi va platformasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar to'g'risida barcha ma'lumotlarni hisobini yuritish nazarda tutilgan. Shunga, ko'ra mazkur tartibni joriy etilishi ushbu tizimlarda ma'lumotlarni to'liq shakllantirish imkonini yaratadi.

Xufyona iqtisodiyotni aniqlashda qo'llaniladigan O'zbekistonda qurilish korxonalarining iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari va ularning tahlili²
(mlrd.so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Jami qurilish korxonalari soni	14 802	17 830	21 446	32 632
2	Soliq hisobotlarida ko'rsatilgan aylanma	49 037,3	61 389,6	101 181,5	121 815,8
3	Bank ma'lumotlariga asosan yirik pul tushumlari	29 228,0	30 221,1	46 223,6	58 955,2
4	Ishchi soni	219 755	258 550	289 491	264 054
5	FOT	5 345,0	6 599,9	8 370,3	9 944,5
6	O'rtacha 1 ta ishchiga to'g'ri keladigan 1 oylik ish haqi (mln so'm)	1,0	1,1	1,4	1,9
7	Jami o'tkazilgan soliq tekshiruvlari soni	84	3 599	7 640	1 628
	sayyor soliq tekshiruvi	0	31	518	123
	kameral soliq tekshiruvi	2	3 447	6 768	1 409
	soliq auditi	82	121	354	96
8	Xufyona iqtisodiyotni aniqlash doirasida qo'shimcha hisoblangan soliq summasi	234	2096	2578	1061

Ushbu keltirilgan 2.2-javdaldan ko'rish mumkinki, respublikamizda 2019-2022-yillarda mavjud o'rtacha, 30 mingga yaqin qurilish korxonalarida soliq hisobotlarida ko'rsatilgan aylanma va bank ma'lumotlariga asosan yirik pul tushumlari o'rtasida farq qariyb, 2 martadan ortiq bo'lganligi bu kabi korxonalarda xufyona iqtisodiyotning ortib borishini ko'rish mumkin. Ushbu korxonalarga oid o'tkazilgan soliq nazoratlari natijasida xufyona iqtisodiyotni aniqlash doirasida qo'shimcha hisoblangan soliq summasi 2019-yilda 234 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda uning miqdori juda oshgan holda 2096 mlrd.so'mni tashkil etgan, ko'rilgan tashkiliy va amaliy mexanizmlarning natijasi o'laroq, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb 60 foizga yoki 1517 (2578-1061) mlrd.so'mga kamaygan.

Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 471-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan Hisobvara-q-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni 59 "1"-bandida uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha daromadlarga bir tomonlama elektron hisobvara-q-faktura rasmiylashtirish belgilangan.

Soliq kodeksining 248-moddasi 7-qismiga muvofiq, ob'ektlarni qurishda, shu jumladan, ob'ektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj,

² Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining ushbu Kodeksning 303-moddasiga muvofiq soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanishi belgilangan. Bunda, qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i soliqlarini aniqlashda soliq bazasi kiritildi.

Korxonalar hisobotlari o'rganishda 2023-yil 31-dekabr holatiga balansda mavjud bo'lgan, biroq qo'shilgan qiymat solig'i hisobotida 370 ta holatda qiymati 2 722,4 mlrd.so'm miqdorda tugallanmagan qurilish ishlari qoldig'i bo'yicha soliq hisoblanmaganligi ma'lum bo'ldi. Natijada 2023 yil uchun qurilish korxonalari jami 4086,9 mlrd.so'm miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmaganligi (to'lanmaganligi) aniqlandi.

Ushbu tahlillar fikrimizcha, qurilish tashkilotlarining (shu jumladan markazlashgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan ob'ektlar bo'yicha) xaqiqatda bajarilgan ishlari xajmini yashirish va ishchi sonini pasaytirib ko'rsatish xavfini oldini olish yuzasidan kompleks chora tadbirlar ishlab chiqib amaliyotga joriy qilishni taqozo etadi.

Ayrim manbalarga ko'ra, "so'nggi yillarda mamlakatda sement ishlab chiqarish quvvati 1,8 baravar — 2019-yildagi 15,1 mln tonnadan 2023-yilda 26,7 mln tonnagacha oshgan. Bu davrda ishlab chiqarish hajmi 1,4 baravarga — 10,9 mln tonnadan 15,2 mln tonnagacha oshdi. Bugungi kunda O'zbekistonda 35 ta sement zavodi faoliyat yuritadi va ularning ishlab chiqarish quvvati 26,7 mln tonnani tashkil etadi (32,7 million). Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat korxonalari sementga bo'lgan ichki talabning 92 foizini qoplaydi (2019-yilda bu ko'rsatkich 79 foiz edi). 2020–2023-yillarda birjada sementning o'rtacha narxi yetarli hajm tufayli atigi 4,6 foizga — bir tonna uchun 626 ming so'mdan 655 ming so'mgacha oshgan. 2024-yilda zavodlar quvvati 30 foizga yoki 7,9 mln tonnaga — 34,6 mln tonnagacha, ishlab chiqarish hajmi esa 16,7 mln tonnaga (+10 foiz yoki 1,6 mln tonna) oshishi kutilmoqda. Import esa 1 mln tonnagacha qisqarishi kutilmoqda (-57 foiz yoki 800 ming tonna)"³.

³ <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/10/cement/>.

2-jadval

**O‘zbekistonda sement ishlab chiqaruvchi korxonalarda aniqlangan xufyona
iqtisodiyot kesimida mahsulotning kirim qilinmasligi oqibatida soliq
tushumlarining yo‘qotilish tahlili⁴ (mlrd so‘m)**

Hududlar	Korxona soni	2022-yil		2023-yil		2022-2023- yillarda realizatsiya qilingan sement narxlaridan kelib chiqib o‘rtacha hisoblanganda yetarlicha kirim qilinmagan sement qiymati	Kirimsiz sement realizatsiya qilganlik holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘shimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan foyda solig‘i
		jami kirim, tonna	jami realizatsiya, tonna	jami kirim, tonna	jami realizatsiya, tonna		
Jami:	262	718751,9	1 274 372,6	491023,2	516 583,8	359 471,4	53 920,7
QQR	16	12515,3	184 408,2	17113,2	21 550,7	101 064,4	15 159,7
Andijon viloyati	18	26 259,3	64 252,6	3 189,5	2 020,0	22 499,5	3 374,9
Buxoro viloyati	15	1 936,7	22 938,1	1 775,1	3 663,8	13 539,8	2 031,0
Jizzax viloyati	8	0,0	5 475,1	366,7	0,0	3 211,4	481,7
Kashkadaryo viloyati	20	76956,7	94 010,5	83823,2	78 003,7	9 729,0	1 459,4
Navoiy viloyati	14	62478,1	75 567,0	42710,6	40 740,2	7 562,5	1 134,4
Namangan viloyati	12	14848,4	26 905,8	16 226,4	17 758,7	7 487,3	1 123,1
Samarkand viloyati	21	17544,2	44 848,8	696,4	3 008,2	17 030,1	2 554,5
Sirdaryo viloyati	2	2 125,2	3 618,0	320,0	0,0	834,4	125,2
Surxondaryo viloyati	41	30928,1	61 794,5	2 110,4	3 344,9	18 746,2	2 811,9
Toshkent viloyati	14	211137,5	263 119,3	201831,8	200 506,1	30 273,8	4 541,1
Fargona viloyati	19	93 467,8	145 388,8	36 699,6	44 549,1	33 802,8	5 070,4
Xorazm viloyati	12	65 317,1	106 288,4	9 459,9	44 025,6	44 303,2	6 645,5
Toshkent shahri	50	103237,7	175 757,5	74 700,4	57 412,7	49 386,9	7 408,0

Ammo, yuqorida keltirilgan 2.3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra tahlil qiladigan bo‘lsak, respublikamizdagi sement ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 262 ta korxonaning faoliyati tahlil qilinganda ularda 2023-yilda kirim qilingan jami 491023,2 tonna sement 2022-yilga 718751,9 tonna sementga nisbatan o‘rtacha 227 ming tonnaga kam bo‘lganki, bu ishlab chiqarilgan sement mahsuloti va haqiqatda kirim qilingan sement o‘rtasida farqdan dalolat beradi va ko‘rinadiki, xufyona iqtisodiyot vujudga kelganligi oqibatida paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 2022-2023-yillarda realizatsiya qilingan sement narxlaridan kelib chiqib o‘rtacha hisoblanganda yetarlicha kirim qilinmagan sement qiymati respublika miqyosida 359471,4 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu kirimsiz sement realizatsiya qilganlik holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘shimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan

⁴ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

foyda solig'ini budjetga kelib tushishini 53 920,7 mlrd.so'mga kamayishiga olib kelgan. Bunda hududlar kesimida qaraydigan bo'lsak, Qoraqalpog'iston respublikasining ulushi 15159,7 mlrd.so'mni, Farg'ona viloyatining ulushi 5070,4 mlrd.so'mni, Xorazm viloyatining ulushi 6645,5 mlrd.so'mni, Toshkent shahrining ulushi esa, 7408,0 mlrd.so'mni tashkil etgan.

3-jadval

Sement ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilish natijasida budjetga yetkazilgan zararlar tahlili⁵ (2023-yil kesimida) (mln.so'm)

Hududlar	Korxona soni	To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilingan sement maxsulotlari			Birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishi natijasida yo'qotilgan soliq bazasi	Past narxda realizatsiya qilganlik holatlari o'z tasdig'ini topganda qo'shimcha hisoblanishi mumkin bo'lgan	
		korxon a soni	miqdori (tonna)	qiymati (QQS bilan)		QQS	Foyda solig'i
Respublika bo'yicha jami:	48	33	2 673 986	1542471,0	278 092,8	29 795,7	37 244,6
Qoraqalpog'iston Resp.	1	1	16 540	9 157,3	947,9	101,6	127,0
Andijon viloyati	7	5	141 681	83 645,0	26 183,2	2 805,3	3 506,7
Buxoro viloyati	1						
Jizzax viloyati	3	2	104 300	68 158,3	1 760,7	188,6	235,8
Qashqadaryo viloyati	2	2	48 660	29 563,9	1 863,0	199,6	249,5
Navoiy viloyati							
Namangan viloyati	5	4	280 928	156 312,6	13 818,6	1 480,6	1 850,7
Samarqand viloyati	5	4	24 074	13 922,5	963,6	103,2	129,1
Surxondaryo viloyati	1	1	217 493	129 482,4	4 353,2	466,4	583,0
Sirdaryo viloyati							
Toshkent viloyati	4	1	9 625	5 187,4	585,0	62,7	78,4
Farg'ona viloyati	9	4	198 903	94 198,8	40 163,1	4 303,2	5 379,0
Xorazm viloyati							
Toshkent shahar	2	1	50	14,8	14,3	1,5	1,9
YST HDSI	8	8	1 631 732	952 827,9	187 440,0	20 082,9	25 103,6

Keltirilayotgan 3-jadvaldan xulosa qilish mumkinki, respublikamiz bo'yicha 48 ta sement ishlab chiqarish korxonalari faoliyati alohida tahlil qilinganda, ularning 33 tasida 2673 986 tonna sement to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilingan. Uning oqibatida birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishi natijasida yo'qotilgan soliq bazasi 278092,8

⁵ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

mln.so'mni tashkil etgan, natijada esa, past narxda realizatsiya qilganlik holatlari o'z tasdig'ini topganda qo'shimcha hisoblanishi mumkin bo'lgan QQS summasi 29795,7 mln.so'mni, foyda solig'i summasi esa, 37244,6 mln.so'mni tashkil etadi, bundan ko'rinadiki (37244,6+29795,7) 67040,3 mln.so'mlik soliq tushumi xufyona faoliyat va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilingan sement mahsulotlari hisobiga ro'y bergan.

Bir so'z bilan xulosa qilib aytganda, soliq to'lovchilar elektron hisobvaraqa-fakturalar rasmiylashtirishi orqali o'zaro xizmat va tovarlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarni amalga oshirishi, ishonchnoma, shartnoma, tovar-transport yukxati va boshqa bir qator hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirishi, hisobvaraqa-fakturalar elektron shaklda Soliq qo'mitasining serverlarida 10 yil davomida xavfsiz saqlanish, qayta ishlash va qabul qilinishi soliq to'lovchilarning soliq bazasini kamaytirishga imkon bermaslik vujudga keldi, soliq turlari bo'yicha soliq bazasining amaldagi qonunchilik asosida shakllanishi va ularning soliq hisobotlarida ko'rsatilishiga olib keldi. Demak, bugungi kundagi soliq tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari ham insofli soliq to'lovchilarni rag'batlantirish va soliqdan bo'yin tovlagan soliq to'lovchilarning faoliyatida xufyona iqtisodiyotning paydo bo'lishining oldini olishga xizmat qiladigan moliyaviy mexanizmlarni shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa va takliflar.

Yuridik shaxslar bilan jismoniy shaxslar o'rtasida predmeti ishlar bajarishdan iborat bo'lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga amalga oshirilgan to'lovlarga ishlatilgan materiallar narxi ham qo'shilgan bo'lsa, ushbu JShni tadbirkorlik faoliyati davlat ro'yhatidan o'tkazilganligini va tegishli soliqlar hisoblanishini tekshirish.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шум- петер. М.: Изд-во Эксмо, 2007. 864 с.

Покровский А.К. Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учеб. пособие / А. К. Покровский. М.: Изд-во Кнорус, 2011. 160 с.

Kristina F.B. "The Informal Economy" march 2004, Шведский Международный агентство сотрудничества развития SE-105 25 Стокгольма Швеция.

Аронов А ва Кашин В (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.

Жалонкина И, (2012) "Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской федерации". Автореферат диссертации на и соискание ученой степени кандидата экономических наук с.14.

Андреева В.А. Повышение налоговой грамотности и культуры участников

налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука |4 (14) 2017. стр.136-140.

Кузнецов А.Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект) 2016. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilieva.narod.ru/zhurnal/>

Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.

L.E.Raxmanovning “Xufyona iqtisodiyotni ulushini kamaytirishda soliq instrumentlardan samarali foydalanish masalalari” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2024-yil 10-12-bet.